

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Tazkiralarda shoirlar ijodining talqini

Iqboloy Adizova¹**Abstrakt**

Mazkur maqola XV-XVI asr Sharq tazkiralarda ayol shoirlar hayoti va ijodining tadqiqiga bag'ishlangan. Navoiyning "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" kabi qator asarlarida islom dunyosi va o'z davri ayollariga bo'lgan ehtiromli munosabati yaqqol namoyon bo'lgan. Ammo Sharq musulmon dunyosida, XV asrga qadar ayol-shoirlar faoliyati maxsus kitob tarzida yoritilmagan. Ular haqidagi ma'lumotlar zamima tazkiralari, ayrim asarlar orqali bizga etib kelgan. Ammo XVI asr II yarmidan boshlab ayol ijodkorlarga bag'ishlangan maxsus tazkira asarlar ham dunyoga kela boshladi. Bunday maxsus tazkiraning ilk namunasi "Javohir ul-ajoyib"dir. U Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasini forsiy tilga o'g'irgan tarjimon, bir nechta tazkiralari muallifi Faxri Hiraviy tomonidan 1554-1555 yillarda yaratilgan. Asar Debocha va Asosiy qismdan iborat. Unda 31 ta ayol shoirlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada "Javohir ul-ajoyib" tazkirasida, XV-XVI asr Sharq shoirlari ijodi va faoliyati tadqiq etilib, muhim ilmiy xulosalarga kelingan. Bundan tashqari, 286 ta shoira faoliyatini qamragan "Tazkirat ul-xavotin", 140 ta ayol ijodkorlari haqida ma'lumot beruvchi "Tazkirat un-niso" asarlari borasida ham fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *tazkira, orifa, shoira, adabiy jarayon, debocha, hamd, na't, adabiy muhit, devon, nazira, zullisonayn.*

XV-XVI asr madaniy markazi hisoblangan Hirot adabiy muhitida ilm-u fan bemisli darajada rivojlangan. Fanlarning o'ndan ortiq turlari eng yuksak taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilgan. Fuqarolar fazl-u hikmat, ilm-u ma'rifat, haqoyiq-u daqoyiq, ash'or-u advorni egallashni odamiylik burchi deb bilgan. Ilm o'rganish, ijod bilan shug'ullanish Hirot ahlining kundalik ehtiyojiga aylangan. Bu boradagi ma'lumotlar ko'plab tarixiy, tazkira, memuar asarlar orqali yetib kelgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida ham Husayn Boyqaro va Hirot madaniy muhiti borasida

¹ Adizova Iqboloy Istamovna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mali: ataullo98@mail.ru; iqboloya9@gmail.com

ORSID ID: 0000 – 0002 – 3685 9955

Iqtibos uchun: Adizova, I. 2024. "Tazkiralarda shoirlar ijodining talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2 (2): 4-20,

batafsil, havas bilan ma'lumot bergan: "Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay..." [Bobur, 2002, 195].

Hirotdagi yuksak ma'rifiy jarayon Navoiyning asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ularda turli yo'nalishdagi rang-barang ma'lumotlar bilan bir qatorda Sharq ayollarining ijodkorlik salohiyati, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni kabi masalalar ham yoritilganining guvohi bo'lamiz.

Jumladan, "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" kabi qator asarlarida Navoiyning islom dunyosi va o'z davri ayollariga bo'lgan ehtiromli munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, "Farhod va Shirin" asarida Mehinbonu saroyidagi ilm-u irfonni mukammal egallagan oqila qizlar tasviri faqat muallif tasavvuri mahsuli emas. Balki Hirot madaniy muhitining yuksak maqomi davr ayollari tafakkur kamoloti uchun ham xizmat qilgan. Mavjud vaziyatni Navoiy asarida o'z ideali bilan uyg'unlashtirib ifodalagan:

*Kelib har qaysi bir fazl ichra mohir,
Mahorat shevasi har birda zohir.
Biri ash'or bahri ichra g'avvos,
Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay'at ruqumig'a qalamkash.
Birining shevasi ilmi haqoyiq,
Balog'atda biri aytib daqoyiq.
Biri tarixda, so'z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Hisob ichra birining zehni borib
Muammoda birisi ot chiqorib.
Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan.
Dilorom-u Diloru-yu Diloso,
Gulandom-u Sumanbo'-yu Sumanso.
Parichehru Parizod-u Parivash,
Paripaykar zihi o'n ismi dilkash... [Navoiy, 1991, 272].*

Shariat talablariga ko'ra, davr tazkiralarda ayollar haqida ma'lumot berishdan saqlanilgan. Ammo, ayrim ishoralar borki, ulardan foydalanib, adabiy muhitda davr ijodkor ayollari maqomini belgilash imkoniga ega bo'lamiz. Jumladan, Navoiy "Majolis un-

nafois” tazkirasida 4 ta – Mehriy, Bediliy, Ofoqbegim Jaloyir va Bibichai Munajjima ijodini qisqagina, odob doirasida baholaydi.

Ko’rinadiki, XV asrga qadar shoirlar faoliyati maxsus kitob tarzida ta’lif etilmagan. Ular haqidagi ma’lumotlar zamima tazkiralari¹ orqali bizga yetib kelgan. Ammo XVI asr II yarmidan boshlab ayol ijodkorlarga bag’ishlangan maxsus tazkira asarlar ham dunyoga kela boshladi.

Adabiyotshunoslikka oid ko’plab tadqiqotlarda olimlarimiz “Sham’i anjuman”, “Mashohir un-niso”, “Ro’zi ravshan”, “Tazkirai Husayniy”, “Tazkirat un-niso”, “Nishtari ishq”, “Matla’ ul-ulum”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Mir’ot ul-xayol”, “Natoij ul-afkor”, “Pardanishinoni suxango’y” va “Javohir ul-ajoyib” kabi tazkiralarni ayol shoirlar haqida ma’lumot beruvchi asarlar sirasiga kiritishadi. Ammo ularning barchasi ham shoirlar faoliyatini maxsus yoritishga qaratilmagan. Bunday maxsus tazkiraning ilk namunasi “Javohir ul-ajoyib”dir.

U Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini forsiy tilga o’girgan tarjimon, bir nechta tazkiralari muallifi Faxri Hiraviy tomonidan 1554-1555 yillarda yaratilgan. Asar Debocha va Asosiy qismdan iborat. Unda 31 ta ayol-shoirlar haqida ma’lumot beriladi.

“Javohir ul-ajoyib” “Debocha” bilan boshlanadi. Uning tarkibi hamd, na’t va tazkiraning yozilish sababidan tashkil topgan. Hamd-da muallif Olloh o’z qudrati-la osmonni yulduzlar bilan bezagani kabi, she’riyat durlari ma’nolar olami sohiblarining ko’ngillarini ziynatlashi borasida so’zlaydi.

Keyin na’t qismi keltiriladi. Muallif, - *“Rasuli amin, Qurayshiy laqab,*

Mahi Yasrib-u² oftobi Arab”, -deya payg’ambarimiz s.a.v.ni olam osmonida nur sohib, yorituvchi oy va quyoshga mengzaydi. Ularning musulmonlar ma’naviyatining yuksak timsoli sifatida ta’riflaydi. E’tibor bersak, Hiraviy o’quvchiga fikrini aniq etkazishda borliq, tabiat ashyolaridan mahorat bilan foydalanadi. Bu xususiyat, ayniqsa, asarning hamd va na’t qismida yaqqol namoyon bo’lgan.

Debochaning 3-tarkibiy qismi Safaviy hukmdorlaridan bo’lgan Shoh Tahmasp Husayniyga bag’ishlovdan iborat. Unda muallif an’anaviy, mubolag’ador tasvir usulidan foydalanadi. Shoh Tahmaspni “olam sultonlari sultoni, muazzam xoqon, Turk, Arab va Ajam mamlakatlarining hukmdori”, deya alqaydi. Fikrining avj

¹ Qarang: Faxri Hiraviy. Javohir ul-ajoyib. Toshkent: Mumtoz so’z, 2014, 3-bet. – “Dastlabki tazkira asarlari adabiyot va yondosh sohalariga oid asarlar tarkibida, uning ma’lum bir qismi o’laroq, zamima tazkiralari tarzida yozilgan”. Zamima so’zi “ilova” lug’aviy ma’nosiga ham ega.

² Yasrib-Madina shahrining qadimgi nomi

nuqtasi sifatida bir to'rtlik keltiradi:

*Shohi osmonqadr – Tahmasp shoh,
Kamin xokbo'soni u mehr-u moh.
Safi hojiboni darash begumon
Hama shahriyorand-u sulton-u xon [Faxri Hiraviy, 2014, 137].*

(Mazmuni: Osmon qadrli shoh – Tahmasp shohning, ostonasi tuprog'ini o'puvchilar quyosh va oydir. Shubhasiz, eshigi qorovuli safidagilarning hammasi shoh-u sulton-u xondirlar).

Debochaning 4-qismi tazkiraning yozilish sababiga bag'ishlangan: "Bir kuni ul jahonviqor va tamkinning firdavsoyin majlisidan qaytdim va uy burchagida majmua kitob – "Tuhfat ul-ajib"ni oldimga qo'yib, hurmatli kishilar ash'ori bo'ylab borardim, nogoh nazarim hazrat Xoja Hofiz g'azaliga Mehriyning tatabbu' qilgan g'azaliga tushdi" [Faxri Hiraviy, 2014, 141]. Bu g'azal,

"Yod bod onki, sari ko'yi tu'am manzil bud,

Diydaro ravshani az xoki darat hosil bud..." matlasi bilan boshlangan, "Bud" radifli g'azalga, shoiraning tatabbusi edi. Muallifning ta'kidlashicha, bu tatabbu' shunchalik mahorat bilan yozilganki, hatto, yuksak badiiyati tufayli ba'zilar uni Xoja Hofizning o'z g'azali deb o'ylashar ekan.

Muallif Mehriyning ana shu g'azalidan ta'sirlanib, "...onhazratning sharaflil xotirining xursandligi sifatida zohir bo'lgan ayollar toifasini yig'sam, bag'oyat ajoyibdur" [Faxri Hiraviy, 2014, 143], degan fikrga keladi.

So'ngra Hiraviy tazkiraning tartiblanishi va nomlanish jarayoni haqida so'zlaydi: "...uning (tazkiraning – I. A.) tartibiga ko'p sa'y ko'rsatdim. Ularning koni javohirlari hayratga sabab bo'lgani bois ushbu kichik ish tugaganidan keyin "Javohir ul-ajoyib" deb nom qo'ydim" [Faxri Hiraviy, 2014, 143].

Faxri Hiraviy tazkiraning Asosiy qismida 31 shoir hayoti va ijodini yoritadi. Unda musulmon Sharqida she'r yozgan ayollar haqidagi o'zi bilgan barcha ma'lumotlarni jamlaydi. Birinchi she'r yozgan ayol sifatida, tarixiy asarlarda shavkatli va zabardast podshoh sifatida tilga olingan Bahrom Go'rning husn-u jamol va fahm-u farosatda nodirai davron bo'lgan mahbubasi Dilorom tilga olinadi.

Manbalarda she'riyatning ibtidosi ba'zan Odam Ato, ba'zan Rudakiy, ba'zan Bahrom Go'r nomi bilan bog'lanadi. Muallif shu ma'lumotlardan kelib chiqib, ayollar tomonidan yaratilgan ilk she'r namunasini Bahrom Go'rga mutanosib javob qaytara olgan Dilorom tomonidan yozilganini ta'kidlaydi. Keyin islom olamining

bilimdonlaridan Oysha¹ onamizning ikki misra she'rini, so'ngra Fotimat uz-Zahro otalari Muhammad (s.a.v.) vafot etganda yozgan marsiyasidan ikki misrani keltiradi. Keyingi she'r esa Qur'oni Karimda keltirilgan "Yusuf" qissasi qahramoni Zulayho tomonidan yaratilgani e'tirof etiladi. She'riyat asosida falsafa va hikmat mujassamlashadi. Zulayho yaratgan she'rda ana shunday hayot hikmati ifodasini ko'ramiz:

*At-taqo sayron li abidi mulukan,
Val-havo sayrul muluki abidan*

(Mazmuni: Taqvo qulni podshohga, Kibr-u havo podshohni qulga aylantirdi).

Muallif tomonidan ilk she'r yozgan ayollardan keyin, bevosita, tarix va madaniyat maydonida shoira sifatida nom qozongan ayollar davriy tartibda baholanadi.

Faxri Hiraviy keltirgan shoiralarni bir necha xususiyatlaridan kelib chiqib, tasniflashimiz mumkin:

1. Devon tuzgan shoirlar: Mahsatiy, Podshoh Xotun, Jahon Xotun, Bibi Ismatiy, Shoh Malak Sayyidbegim.

2. She'rlariga zamon shoirlari naziralar bog'lagan shoirlar: Mo'g'ul Xotun, Nihoniy Sheroziy, Nisoiy.

3. "Majolis un-nafois"da eslangan shoirlar: Mehriy, Bediliy, Munajjima.

4. Turkiy tildagi she'rlari yetib kelgan shoirlar: Bibi Yazdiy, Mo'g'ul Xotun.

5. Forsiy tilda yoki zullisonayn she'r aytganlar: Asarda 26 ta forsiyzabon va zullisonayn shoira haqida ma'lumot berilgan. Ammo zamon shoirlari uchun zullisonaynlik davr taqozosi bo'lgan. Chunki ulug' allomalar bu adabiyotni "bir xalqning ikki tildagi adabiyoti", deb baholashgan. Shu sababli, biz ularni turkiyzabon va forsiyzabonlarga ajratib o'rganishimiz juda ham to'g'ri emas, deb hisoblaymiz.

6. Arab tilida she'r aytganlar: Hazrati Oysha, Xayr un-niso Fotimat uz-Zahro va Hazrati Zulayho.

Tazkiradagi ro'yxat ilk she'r yozgan ayollardan keyin, XI-XII asr I yarmida Ganja shahrida yashab ijod etgan Ozarbayjon shoirasi Mahsatiy tavsifi bilan boshlanadi. Muallif u haqda qisqa ma'lumot beradi va uning qalamiga mansub, mashhur bo'lgan quyidagi birgina ruboiyni namuna sifatida keltiradi:

*Shoho, falak aspi saodat zin kard,
V-az jumlai xusravon tu ro tahsin kard.*

¹ Oysha (613-678) – Muhammad (s.a.v.)ning rafiqalari, 1-xalifa Abu Bakrning qizi.

*To dar harakat samandi zarrin na'lat,
Bar gil nanihad poy, zamin simin kard.*

(Mazmuni: Ey shoh, falak saodat otini egarladi. Va olam podshohlaridan sengagina tahsin aytdi. Oltin taqali tulporing yurganida, tuproqqa qadam bosmasin deb, yerni kumush ayladi).

Ayol ijodkorlarga bag'ishlangan deyarli barcha tazkiralarda Mahsatiy haqida ma'lumotlar kiritilgan. U 1097-98-yillarda Ganja shahrida tug'ilgan. Yoshligidan shoira sifatida mashhur bo'lgan. Ganja hukmdorlari Muhammad Sulton va Sanjar Sultonlar saroyidagi mushoira kechalarida ishtirok etgan. Katta ehtiromga sazovor bo'lgan. XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan asarlari etib kelgan. Turli manbalar va Abdulla Javhar Zargar Tabriziy tomonidan yaratilgan "Amir Ahmad va Mahsatiy" dostonida saqlangan [Alimbekov 2022, 136]. Uning hayoti va ijodi borasida bizgacha ko'plab, bir-biridan farqli rivoyatlar yetib kelgan. Ularning ko'pi yuqoridagi dostonda mavjudligi e'tirof etilgan. Ammo Hiraviy asarida bu rivoyatlarni inkor etib, ularning asosga ega emasligini ta'kidlaydi: "Mahsatiy va Amir Ahmad haqida naql qilganlari g'ayri voqeadir" [Faxri Hiraviy, 2014, 145].

Mahsatiy asarlari, asosan, oshiqona yo'nalishda. Taxallusini turlicha izohlashadi. Jumladan, Mah – oy, sati – xonim, ya'ni "Oy xonim", "Go'zal xonim" ma'nosida talqin etiladi. Uning, ayniqsa, ruboiy janri taraqqiyotidagi xizmati beqiyos. 257 ta ruboiysi, 30 dan ortiq she'rlari ma'lum. Shoira Nizomiy Ganjaviy va Umar Xayyomni o'ziga ustoz deb bilgan. Ulardan ta'sirlanib asarlar yozgan. She'riyatidagi falsafiylik va irfoniylilik xususiyatlari ustozlar ijodiy maktabi saboqlarining natijasidir. Hatto, uning qabri ham ustoz Nizomiy bilan bir joyda ekanligi haqida ma'lumotlar bor. Shoiraning she'rlari ilk bor shoir Sahob Tohiriy tomonidan turli manbalardan to'planib nashr etilgan. 1963-yilda chop etilgan nemis sharqshunosi Frits Meyerning "Go'zal Mahsatiy" kitobida shoira tarjimayi holi va asarlari tadqiq etilgan.

Ozarbayjon madaniyati tarixida Mahsatiyning o'rni beqiyos. Teatrlarda uning obrazi bir necha bor yaratilgan. Jumladan, Erto'g'rul Jovid va Nigor Rafibeyli hamkorligida 1964-yilda "Mahsatiy" operasi yaratilib, teatrlar sahnasida bir necha bor qo'yilgan. 1982-yilda Ganja shahrida Mahsatiy xotirasini abadiylashtirib haykal o'rnatilgan. 2013-yilda Parijda tavalludining 900 yilligi munosabati bilan Ozarbayjonning YUNESKOdagi doimiy vakolatxonasi tomonidan tadbir tashkil etildi. Ozarbayjonda Mahsatiy Ganjaviy madaniy markazi ochildi. 18 may - Xalqaro

muzeylar kunida ko'rgazma tashkil etildi. 2019 yilda Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra shoira asarlari "Respublika madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi. Shu yili ND 152581- yulduz uning nomi bilan atala boshlandi.

Mahsatiy Ganjaviy asarlari o'zidan keyingi davr shoir-u shoiralariga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Jahon Xotun (XIV asr), Ubayd Zokoni (XIV asr)lar shular jumlasidandir.

Tazkirada Jahon Xotun haqida ham ma'lumot beriladi. U Sheroz shohi Mas'udxonning qizi. Xoja Hofizning shogirdi. Muallif asarda uning Hofiz bilan uchrashgani, ustoz bilan mushoira g'azallar bitganini eslaydi. Shunday asarlaridan, baytlaridan namunalar keltiradi.

Jahon Xotun Mahsatiyga ham ergashib, ruboiyning nodir namunalarini yaratgan. Devon tuzgan. Uning boshqa lirik janrlar bilan bir qatorda 357 ta ruboiysi ma'lum. Devonida 14.000 bayt she'ri jamlangan. Tazkira muallifi uni alohida ehtirom bilan tilga oladi: "Jahon Xotun – Sheroz shoiralarining mashhurlaridan edi va husnu jamolda tengi yo'q bo'lgan. ...Hamisha nozik fikrli odamlar va yaqin kishilar uning majlisida hozir edilar. Va shu toifaga e'tiborli edi. Hamma uni nazokatli va go'zal tabiati va idrok va yaxshi qobiliyatini tan olardi" [Faxri Hiraviy, 2014, 148].

Shoiraning mushoira-majlislariga uzoq-yaqindan ijodkorlar tashrif buyurishgan. Jumladan, tazkirada Jahon Xotunning Ubayd Zokoni bilan bo'lgan mushoirasi eslanadi: "Uning (Ubayd Zokoni – I.A.) hajviya va mutoyibalari mashhur bo'ldi. Qazvin viloyatidan Sherozga otlandi va Jahon Xotun majlisiga yuzlandi. U yerda barcha xushta'b so'zamollar va yaqin kishilar hozir bo'ldilar. U bilan Jahon Xotun orasida katta mushoira bo'ldi va badihona she'r o'qidilar. Va bahs, so'zamollik va nozikta'blik bemahalgacha cho'zildi. Aytishlaricha, o'sha kuni Jahon Xotun g'olib bo'lgan" [Faxri Hiraviy, 2014, 149].

Bu ma'lumotlar Jahon Xotunning o'z davri adabiy jarayonida tutgan o'rni va iste'dodining darajasi bilan tanishtiradi.

Mazkur tazkirada "Majolis un-nafois"ga kiritilgan 4 ta shoira haqida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar Navoiy fikrlarini yanada to'ldirishi bilan qimmatlidir. Jumladan, Faxri Hiraviy Mehriy ijodini yoritishga tazkiraning yaratilish sababidagi ma'lumotlardan tashqari, alohida fasl ham ajratadi. Unda uning hayoti, shaxsiyati, muhiti va asarlari haqida to'xtaladi. 6 ta ruboiy va bir necha baytlar misol keltiradi. Ularning yozilish tarixiga to'xtaladi: "Bibi Mehriy – Shohruh Mirzo davrida Gavharshodbegim mulozamatida turgan

va yaqin munosabati bo'lgan. ... Husn va jamolda nodirayi davron sanalgan. Ushbu kitobning yozilishiga sabab bo'lgan g'azalidan tashqari ham yaxshi she'rlari bor" [Faxri Hiraviy, 2014, 151]. Muallif tazkiraning shu o'rnida uning bir matlasini keltiradi:

*Boxi har xoreki, on az xoki man hosil shavad,
Zohid ar misvok sozad, mastu loyaqil shavad.*

(Mazmuni: Mening tuprog'imda paydo bo'ladigan har bir tikan ildizini, agar zohid tish kovlagich qilsa, mast va hushsiz bo'ladi).

Mazkur baytning irfoniy mazmunidan Mehriy iste'dodining darajasini sezish mumkin. Baytda shoira ko'nglidagi ishq qudratidan so'zlamogda. Undagi ishq har qanday insonni o'ziga ergashtira oladi. Oliy vasl ishtiyoqida mast-u mustag'raq etadi.

Tazkiranavis Mehriy ijodi haqida gapirganda, ehtirom va mehr bilan so'zlaydi. Bu bejiz emas, chunki Mehriy XV asrda yashagan, Hirot adabiy muhitida katta hurmatga sazovor taniqli shoira bo'lgan. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining "Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'lmadim", deb nomlangan 1-majlisida Mavlono Sulaymoniy haqida ma'lumot berayotib, Hofiz g'azaliga bog'langan tatabbu' haqida so'zlaydi va buning mavlono qalamiga mansubligini bayon etadi. Ammo shu o'rinda bu tatabbu' – g'azalning Mehriyga ham nisbat berilishini eslab o'tadi: "Va mashhur mundoqdurkim, bu ab'ytot Mavlono Hakim Tabibning xotuni Mehriyningdur. Va bu faqir siqqa eldin eshittimkim, Sulaymoniyningdur, vallohu a'lam" [Navoiy 1997, 26]. Ammo Faxri Hiraviy ishonch bilan "Tuhfat ul-ajib" nomli majmua kitobga kiritilgan tatabbuni o'qigani haqida ma'lumot beradi. Navoiy esa eshitganiga ko'ra fikr bildirgan. Undan tashqari, Faxri tazkirasida 5 baytdan iborat mazkur g'azal to'liq keltiriladi. Maqta' baytda g'azal an'anasiga ko'ra, Mehriy taxallusi ham qo'llangan:

*Davlate bud tamoshoi ruxat Mehriyro,
Hayf va sad hayfki, on davlat musta'jil bud* [Hiraviy, 2014, 142].

(Mazmuni: Mehriy uchun yuzingning tamoshosi bir davlat edi, hayf va yuz hayfki, u davlat shitob bilan ketdi).

Hiraviy, bizningcha, mazkur g'azalni bejiz to'liq keltirmagan. Uning maqsadi adabiy jarayondagi g'azal muallifligi bilan bog'liq bahs-munozaraga oydinlik kiritishdan iborat bo'lgan. U o'z niyatiga yetadi va keltirilgan ishonchli dalillar vositasida fikrini isbotlaydi.

Ta'kidlaganimizdek, Navoiy "Majolis un-nafois"da Mehriyni Mavlono hakim tabibning xotini, mazkur tazkira muallifi esa uni Xoja

Abdulaziz hakimning xotini, deb eslaydi. Ayrim boshqa manbalarda ham Xoja Abdulaziz hakim deb eslanadi. Bu esa Navoiy tazkirasida Mavlono hakim tabib deb tilga olgan shaxsning ismi Abdulaziz bo'lgan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Navoiy "Majolis un-nafois"ida eslangan yana bir shoira – Bediliydir. Asarda uning quyidagi matlasi Navoiy tomonidan namuna sifatida keltirilgan:

*Ravam ba bog'u zi nargisi du dida vom kunad
Ki, to nazorai on sarvi xushxirom kunam [Navoiy, 1997, 134].*

"Majolis un-nafois" [Navoiy, 1997, 134] noshirlari tomonidan ta'kidlanishicha, Bediliy shoirlar haqida ma'lumot beruvchi Mogai Rahmoniyning "Pardanishinoni suxango'y" asarida Hirot adabiy muhitida mashhur bo'lgan shoira sifatida tilga olingan.

Navoiy tazkirasida Bediliyning oilasidan uch ijodkor – o'g'li Shayxzodai Ansoriy, turmush o'rtog'i Shayx Abdullo va o'zi haqida ma'lumot bergan. O'g'lining ilmi, noyob iste'dodga ega, ayniqsa, she'riyatning muammo janrini aytish va yechishda mahoratli ekanligini ta'kidlagan. Shayx Abdullo ham majnunshiorroq bo'lishiga qaramay, yaxshi she'rlar yozgani borasida ma'lumot bergan. Muallif mazkur, bir oiladan yetishib chiqqan uch shoir haqidagi ma'lumotlarning barchasini ketma - ket 4-majlisning bir o'rnida keltiradi. Oiladagi erkag-u ayol ijodkor ekanligini havas bilan e'tirof etadi: "...Desa bo'lurkim, aning uyida zano-mardi xush tab'durlar" [Alisher Navoiy, 1997, 135]. Muallif ularning uchalasining ham ijodidan namunalar keltiradi.

Hiraviy ham tazkirasida Bediliyning alohida hurmat bilan eslaydi: "Bediliy – Mavlono Shayx Abdullo Devonaning xotini. Va Mavlono Abdullo Hirotning mashhur xushta'blilari jumlasidan bo'lgan. Bediliyning quyidagi matlasini Amir Alisher o'zining "Tazkirat ush-shuaro"¹sida keltirgan" [Faxri Hiraviy, 2014, 161], deya yuqoridagi matlaga murojaat etgan.

"Majolis"da uchragan yana bir shoira Bibichai Munajjimadir. Navoiy asarda Xoja Alouddin haqida so'zlayotib, "Xoja Afzaliddin Muhammadqa qarobatdur va Bibichai Munajjimaning inisidur", deya eslab o'tadi. (Hiraviy noshirlari singlisi deyishadi. Ammo Navoiy aniq va ishonchli ma'lumot bergan).

Navoiyning bunday qisqa va to'g'ridan-to'g'ri eslashining o'ziyoq, Bibichai Munajjimaning o'z davrida mashhur va taniqli ekanligini anglatadi. Bu nomni biz shoirning "Nasoyim ul-muhabbat" asari orqali ham yaxshi bilamiz. Uning "Erkaklar martabasiga

¹ Navoiyning "Majolis un-nafois"ini nazarda tutgan.

yetgan orif ayollar zikri” deb nomlangan so’nggi qismida Bibichai Munajjima 35 orifa ayollardan biri sifatida tavsiflangan: “Bibichai Munajjima Kirmon mulkidindur. Mazkur bo’lg’on ilmida (tasavvuf va avliyolik ilmida) o’z zamonining saromadi erdi, ammo mayli darveshlik sari erdi. Zamon podshohi iltifot va ta’zim ko’p qilur erdi va podshoh haramlari uzamoyi havotini bag’oyat hurmat tutarlar erdi. Oqibat barchaning ixtilotin tark qilib, xiyobon boshida o’z manzili javorida masjidi jome’ yasadi va mulk-u asbobin anga vaqf qildi, andoqkim, holo ravnaqi bor va kasir xaloyiq anda namoz qilurlar” [Alisher Navoiy, 2001, 498].

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Munajjimaga orifa ayol sifatida keng to’xtalgan. Shu sababli, “Majolis”da Alouddin Kirmoniy faoliyatini yoritayotib, faqat uning opasi ekanligini ta’kidlaydi, xolos. Faxri Hiraviyning “Javohir ul-ajoyib”i esa Navoiyning “Nasoyim”dagi fikrlarini yanada rivojlantiradi. U haqdagi rivoyatlardan namunalar keltiradi. O’quvchini erining vafotiga bag’ishlab yozgan marsiya – g’azali matlasi bilan tanishtiradi:

Kavkabi baxtamki, bud az vay munavvar osmon,

Bingar ey mohki, az firoqat dar zamin ast in zamon

[Faxri Hiraviy, 2014, 160].

(Mazmuni: Baxtim yulduzi ediki, undan osmon munavvar edi, Ey oy, nazar sol, firoqingdan bu zamon yerga tushdi).

Hiraviy uni Bija¹, Munajjima bija deb tilga oladi. Amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot beradi. Hirot adabiy muhitidagi o’rnini belgilaydi. Abdurahmon Jomiy bilan ustoz-u shogidlik maqomida bo’lganini eslaydi: “Munajjima Bija davrning nozikfahm va orifa ayollaridan edi. Ayniqsa, yulduzlar ilmida uningdek yo’q edi. Dunyoviy ilmlarni ham bilar va ko’p fazilatlarni kasb qilgan edi. Va sulton va amirlarga manzur bo’lgan edi” [Faxri Hiraviy, 2014, 160]. Demak, uning Munajjima deb taxallus qo’llashi bejiz emas ekan. Yulduzlar ilmining bilimdoni ekanligini anglaymiz. Bu esa Hirotida ayollar faqat adabiyot va san’at bilan emas, balki ilm-fan bilan ham shug’ullanganini ko’rsatadi. Navoiy ham, Faxri ham uning masjid, hammom qurib, xalqqa xizmat qilganini ta’kidlashadi.

Muallif alohida ehtirom bilan ta’riflagan shoiralardan yana biri Ofoqbegim Jaloyirdir: “Ofoqbegim xushta’blikda dunyoning mashhuri edi. Amir Darveshali Kitobdorning xotini edi. (Darveshali) uzoq yillar qubbatulislom – Balxda hokimlik qilgan va Amir Alisherning ukasi edi” [Faxri Hiraviy, 2014, 157]. Ofoqbegimning she’r aytishda mashhurligi va baland iste’dod sohibi ekanligini

¹ Bija – bibicha, bibijon ma’nosida

aytar ekan, muallif uning 4 ta g'azalidan namuna va bir ruboiysini keltiradi. Shoiralarining ahli ta'b orasida mashhurligini aytish bilan birga, asarlarining "yaxshi va rangin" [Faxri Hiraviy, 2014, 158] yozilganligini ham alohida e'tirof etadi.

Tazkirada bir nechta shoiralarning devon tuzganligi ham e'tirof etiladi. Shundaylardan biri Shoh Malak Sayyidbegimdir. Muallif uning shaxsiyati va iste'dodiga yuqori baho beradi: "Asli nomi Malak. Tab'i nazm uslubida bag'oyat muloyim va didi muvofiq kelgan. Nomiga munosib Malak taxallusini qo'yadi va ushbu zamonda o'z toifasining malagidir. Bu yerlarda¹ uni Begim shoir deyishadi. Filvoqe' devonini ko'rdim, yaxshi edi" [Hiraviy, 2014, 168]. Tazkira muallifi uning "xud" radifli bir g'azalini to'liq keltiradi. G'azaldan shoiraning chuqur ma'nolarni mahorat bilan ifodalash iste'dodiga ega ekanligi ko'rinib turadi. Oshiqona yo'nalishdagi g'azalda ishq dardi va so'zon-u otashini nihoyatda ta'sirli bayon etadi. Hatto maqta'da ishq olovi shunchalar o'tkirki, halokidan so'ng qabrtoshini ham kuydirib yuborishini san'atkorona tasvirlaydi:

*Az in so'zeki, man doram z-ishqi buton hargiz,
Baxoham so'xt oxir, ey Malak, lavhi mazori xud*

[Hiraviy, 2014, 169].

Muallif yana bir shoiralar – Bibi Ismatiy haqida ma'lumot berar ekan, u Hokimiy taxallusi bilan ham ijod qilganini aytadi. Devon tuzgan shoiralar ekanligi, devonining xalq orasida mashhurligi haqida so'zlaydi. Taxalluslarining ma'nolarini izohlashga e'tibor qaratadi. Ismatiy taxallusi unga ko'proq munosib ekanligi borasidagi mulohazasini aytib munosabat bildiradi: "Uning birodari necha yillar hokim edi. Shu munosabat bilan Hokimiy taxallusi bor va devoni xalq orasida mashhur... Ammo Ismatiy g'oyat solih va sojida edi. Va o'z fe'lga ko'ra taxallus ixtiyor qilgan" [Faxri Hiraviy, 2014, 161]. Demak, ko'rinadiki, Bibi Ismatiy o'z asarlarida ikkita taxallus qo'llagan. Muallif keltirgan namuna bayt shoiraning teran fikrlovchi, dunyoqarashi keng, qadrshunos ijodkor ekanligini namoyon etadi. Inson qadri va ko'nglini Ka'badan-da ustun qo'ya oladi:

*Az po shikastagon talabi Ka'ba mushkil ast,
On ka'baeki dast dihad, ka'bai dil ast.*

(Mazmuni: Oyog'i singanlardan Ka'baga borishni talab qilish qiyin, qo'li etadigan Ka'ba ko'ngil ka'basidir).

Tazkirada bir nechta shunday shoiralar tilga olinganki, ularning asarlariga davr adabiy muhitining yetakchi shoirlari

¹ Astrobod nazarda tutilmoqda

tatabbular bog'lashgan. Bu, albatta, mazkur ijodkor-ayollarning iste'dod darajasi haqida xulosa chiqarishimizga asos beradi. Adabiy jarayonda ularning tan olinganini ko'rsatadi. Shulardan biri marhum Muhammad Shayboniyxonning xotini, Muhammad Rahim Sultonning onasi, podshohning bosh xotiniga beriladigan "Mahdi-ulyo" unvoni bilan alqangan Mo'g'ul xonim idroki va ijodiga Faxri Hiraviy alohida ehtirom ko'rsatadi: "Aql va farosatda o'xshashi yo'qligini aytishning o'zi uning ta'rifiga yetarli. Tabiati nazm javharlari bilan ziynatlangan edi. Va undan gohida nazm zohir bo'lar edi" [Faxri Hiraviy, 2014, 156]. Muallif uning quyidagi bir turkiy baytini misol tarzida keltiradi:

*Demakim, dardingni izhor ayta dildor ollida,
Qaysi bir dardimni izhor aylamon yor ollida*

[Faxri Hiraviy, 2014, 156].

Muallif shoiraning she'riyatini ko'pam ta'riflamaydi. Ammo adabiy jarayondagi Ubaydiy, Amir Rustam Ali, Muhammad Solih, Mavlono Shavqiy Chechaktuiy, Valibek Sipohiy¹ kabi o'nlab ijodkorlar tomonidan uning g'azallariga bog'langan naziralarni keltiradiki, bu shoira ijodining davr adabiyotida tan olinganini ko'rsatadi. Muallif shu o'rinda Navoiyning ham mazkur "ollida" radifi bilan yozilgan g'azali bir baytini keltirib o'tadi. Bu shoira asari malik ul-kalom ustozning adabiy ta'sirida yozilgan bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishimizga asos beradi.

Nihoniy Sheroziy ham fahm-u farosatda yakto va iste'dodda betakror shoira ekanligining guvohi bo'lamiz.

*Shab, sagi ko'yat ba har joeki, pahlū menihad,
Ro'z xurshidoni zamin mebo'sadu ro' menihad*

[Faxri Hiraviy, 2014, 162].

(Mazmuni: Kechasi ko'chang iti qayerda yonboshlasa, kunduz oftoblar er o'pub yuz qo'yadilar).

Bayt mazmunida chuqur irfoniy ma'no mujassamlashganini kuzatamiz. Abdurahmon Jomiy uning quyidagi bir g'azaliga tatabbu' bog'lagan:

*Shudam devona to xob didam pari-ro,
Che boshad hol agar binad ba bedori kasi o-ro*

[Faxri Hiraviy, 2014, 164].

(Mazmuni: Tushimda pariyuzlini ko'rdimu devona bo'ldim, Agar kimsa uyg'oqlikda uni ko'rsa nima hol yuz berardi?).

Mazkur g'azalga muallif ta'kidlashicha, Jomiydan tashqari

¹ "Majolis un-nafois"ning 5-majlisida so'z yuritilgan.

ham ko'plab, Mavloni Bisotiy, Mavloni Nargisiy, Mavloni Ohiy, Mavloni Hayratiy, Mir Hodi Mashhadiy, Mavloni Qosim Kohiy va, hatto, tazkira muallifining o'zi ham tatabbu' yozganini ta'kidlaydi. Mazkur shoirlardan Jomiy, Bisotiy, Nargisiy, Ohiylar Navoiyning "Majolis un-nafois"ida ham tilga olingan e'tiborli shoirlar ekanligi bizga ma'lum. Bu holat Nihoniyni adabiy muhitda shuhrat topgan va hurmatga sazovor shoira ekanligidan dalolatdir.

Keyingi shoira Ismatbonu Nihoniydir. Uning ham fozila, iste'dodli va yaxshi she'rlar yozganligi e'tirof etiladi: "She'rni ravon va yaxshi yozardi. Ash'orining rangi bor va hamma fazilatlaridan bahramanddir" [Faxri Hiraviy, 2014, 159].

Ismatbonu, Alisher Navoiy bilan do'stona munosabatda bo'lgan, ma'lum muddat Husayn Boyqaroning vaziri lavozimida ishlagan Xoja Afzal Devonning singlisi ekanligi ta'kidlanadi. Uning Kamol Xo'jandiy g'azaliga tatabbusidan namuna keltiradi. G'azalning chuqur majoziy va irfoniy ma'no ko'lamidan kelib chiqib, shoira mahoratini va Xo'jandiy darajasidagi ijodkor ekanligini anglashimiz mumkin. Uning tabiat tasviridan foydalanishidagi betakrorlik shoira she'riyatidagi teranlikdan dalolatdir:

*Hazor sarvki, dar haddi e'tidol baroyad,
Ba qomatat narasad gar hazor sol baroyad*

[Faxri Hiraviy, 2014, 159].

(Mazmuni: Mingta sarv har qancha o'ssa ham, ming yilda ham sening qomatingga yetolmaydi).

Muallif ayrim shoiralarni nasabidan kelib chiqib nomlaydi. Duxtari Qoziyi Samarqand, Duxtari Iffatiy Isfaroniy, Duxtari G'azzoliylar shular jumlasidandir. Shulardan biri Duxtari G'azzoliyning ikki baytini keltiradi. Ammo shu 2 baytdanoq, shoira mumtoz an'analarga yangicha yondashuvchi, yangi obrazlarni kashf etuvchi, o'ziga xos ijodkor ekanligini angalaymiz. Muallifning fikrlari ham bizning mulohazalarimizga uyg'un: "Aytishlaricha, go'zal surat va siyrat bilan bezangan. Tab'i she'riyatda nihoyatda shovqin-suron qo'zg'atuvchi edi" [Faxri Hiraviy, 2014, 170].

Haqiqatan ham, quyidagi baytda uning boshqalardan farqlanuvchi, betakrorligi namoyon bo'ladi:

*Ko'hkan behuda sho're dar jahon afganda ast,
Kanda sangi chand va pindoradki, ko'he kanda ast*

[Faxri Hiraviy, 2014, 170].

(Mazmuni: Ko'hkan jahonda behuda g'avg'o qiladi, Bir necha toshni yorib, tog'ni qo'pardim deb o'ylaydi).

Ikkinchi bayt ham yangichaligi bilan e'tiborga molik:

*Dambadam hamchu sabo girdi saroyat gardam,
To berun oyiyu xoki kafi poyat gardam* [Hiraviy, 2014, 170].

(Mazmuni: Dambadam sabodek kechasi saroyingni aylanib yursam, Koshki tashqariga chiqsang-u, oyog'ing kaftining tufrog'iga aylansam).

Tazkiradan Hirotidagi oilaviy shoirlar borasida ham ma'lumotga ega bo'lamiz. "Majolis"da ham bunday tasvirlarga duch kelamiz. Navoiy an'alarini davom ettirar ekan, muallif tazkirada mazkur masalaga ham alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Bediliy, Zaifiy, Bibi Otun kabi shoirlarning jufti halollari ham shoir bo'lganlarini kuzatamiz. Bu Hirot adabiy muhitining yana bir muhim jihatini namoyon etadi. Hiriya she'r yozmagan, adabiyotga muxlis bo'lmagan kishi qolmaganini, hatto, oilaviy ijodkorlik bilan shug'ullangan xonadonlarning ko'pligini, butun xalq kitobxon bo'lganligini ko'rsatadi. Kitobxonlik tafakkurga o'rgatishini inobatga olsak, xalqning kitobxon va fikrlovchanlik darajasiga ko'tarilganining va bugun biz ibrat olishimiz lozim bo'lgan yuksak ma'naviyat maqomining guvohi bo'lamiz.

Bibi Otun Mavlono Baqoiyning xotini. Mavlono "Majolis un-nafois"ning 6-majlisida yosh, devon tartib bergan va Xurosonga Xorazmdan kelgan navqiron ijodkorlardan ekanligi, ular birgalikda ijod qilishlari va ba'zan munozara she'rlar ham yozishgani aytiladi: "...Har ikkalasi Abdullohxonning nadimi va mahrami edilar. Ko'ngil xursandligi uchun bir-birlari bilan mutoyiba qilardilar" [Faxri Hiraviy, 2014, 172]. Tazkirada ikkala ijodkor qalamiga mansub va mutoyiba shaklida aytilgan ikki ruboiy keltirilgan.

Mazkur tazkirada yana ko'plab – Podshoh Xotun, Bibi Hayot, Nasoiy, Bibi Yazdiy, Bibi Ismatiy, Nisoiy, Partaviy, Bibi Orzuyi Samarqanday, Zaifiy, Hijobiy, Fotima Xotun Do'stiy kabi shoirlarning she'riyati hayotiga uyg'un tarzda tadqiq etilgan. Bundan ularning hasbi holi, asarlarining yaratilish tarixi, davr ayollarining qismati va ularga munosabatlar borasida ma'lumotga ega bo'lamiz. Shoirlar ko'nglidagi dard-u izzat tug'yonlarini, sharq ayollari tafakkur ko'lami va miqyosini aniqroq hamda chuqurroq his etamiz. Bizningcha, muallif maqsadli tarzda shoirlar asarlari mohiyatidan kelib chiqib, ularning hayoti va ijodini uyg'unlikda qamrab oluvchi shunday uslubdan foydalangan. Bu ifoda shakli bizga davr ayollarining ma'naviyati va kamolotidan saboq beradi.

Keyingi, ayol ijodkorlarga bag'ishlangan maxsus tazkiralardan yana biri "Tazkirat ul-xavotin"dir. U Muhammad ibn

Muhammadrafe' Sheroziy tomonidan 1884-85-yillarda tuzilgan. Unda VII asrdan to XIX asr kitob yaratilgunicha Arab, Rum, Hind va Ajam mamlakatlarida yashab ijod etgan 286 ta shoira haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Kitob arab alifbosi tartibida tuzilgan. Muallif asarga tarixiy ma'lumotlardan tashqari shoirlar haqidagi rivoyat va hikoyatlarni ham kiritgan.

"Tazkirat un-niso" asarini olim, shoir va Afg'oniston davlat arbobi qozi Mullo Muhammadsiddiq Oxunzoda Hiraviy 1904-yilda tartib bergan. Unda qadim davrdan to kitob tuzilgan zamongacha yashab ijod etgan arab va fors-tojik shoirlaridan 140 tasi haqida ma'lumot berilgan. Asarlaridan namunalar keltirilgan.

Ko'rinadiki, Tazkira janri Sharq xalqlarining madaniy dunyosini, ma'naviyatini o'rganishda, uni dunyo afkor ommasiga tanishtirishda qimmatli manbalardir. Mazkur janrni chuqur tadqiq etish musulmon sharqi ayollarining ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilashda muhimdir. Tashqaridan qaraganda, musulmon ayollarining erki cheklangandek ko'ringan. Lekin aslida mamlakat va millatning ichki hayotida ularning o'rni nihoyatda katta bo'lgan. Buni biz o'rgangan ayrim ijodkor ayollar faoliyati tadqiqidan ham ko'rishimiz mumkin. Sharq ayollari tafakkur qamrovi keng, kitobxonlik darajasi yuksak va ijtimoiy taraqqiyotda faolligi bilan ajralib turgan. Shunday ekan, musulmon sharqidagi faol, ijodkor ayollar faoliyatini o'rganish adabiyotshunoslik, tarix va ilm-fandagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular bilan yaqindan tanishish zamonamiz ayollarini yanada faolroq, ijodkorroq, kitobxonroq bo'lishga yetaklaydi. Momolarimiz hayoti bizga ulkan saboqlar beradi.

Adabiyotlar

- Bobur Zahiriddin Muhammad (2002). Boburnoma. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Navoiy Alisher (1991). Xamsa. Farhod va Shirin. MAT, 8-tom. Toshkent: Fan nashriyoti. .
- Navoiy Alisher (1997). Majolis un-nafois. MAT. 13-tom. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Navoiy Alisher (2001). Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Faxri Hiraviy (2014). Javohir ul-ajoyib. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti.
- Alimbekov Adham (2022). Ey do'st, muhabbatning umri tuzoqdir. Toshkent: Sharq yulduzi. 2/22.
- Gulzoda, S. (2023). BOBUR VA JADIDLAR IJODIDA VATANPARVARLIK G 'OYALARI MUSHTARAKLIGI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной

- государственности и культуры, 1(1).
- Хамроева, О. Ж. (2013). ОТРЫВКИ ИЗ» BOBURNOMA» В КОЛЛЕКЦИИ АБДУРАУФ ФИТРАТ. Theoretical & Applied Science, (6), 105-111.
- Jalolovna, K. O. (2019). THE RHYMING STUDY AT “FUNUN UL-BALAGA”. Journal of Critical Reviews, 7(3), 2020.
- Нурбой, А. (2005). Маърифат нимадир? Жаҳолат надир?.
- Gulzoda, S. (2023). BOBUR VA JADIDLAR IJODIDA VATANPARVARLIK G'OYALARI MUSHTARAKLIGI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).

Interpretation of works of poetess in Tazkiras

Iqboloy Adizova¹

Abstrakt

This article is dedicated to the study of the life and work of female poets in the Eastern Tazkiras of the XVth and XVIth centuries. Navoi's works such as “Majolis un-nafais”, “Nasayim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror”, “Farhad and Shirin” clearly showed his respectful attitude towards the women of the Islamic world and his time. But in the Eastern Muslim world, the work of female poets was not covered in a special book until the XVth century. The information about them has reached us through the attached tazkiras and some works. But from the second half of the XVIth century, special paintings dedicated to female artists began to appear. The first example of such a special tazkira is “Javahir ul-Ajayib”. It was created in 1554-1555 by Fakhri Hirawi, she translated Navoi's tazkira of “Majolis un-nafois” into Persian language, author of several tazkiras. The work consists of Preface and Main part. It contains information about 31 female poets. In the article, on the basis of the “Javahir ul-Ajayib” essay, the work and activities of Eastern poets of the XVth-XVIth centuries are researched, and important scientific conclusions are reached. In addition, opinions are expressed about the works of “Tazkirat ul-khavatin” covering the activities of 286 poetesses, “Tazkirat un-nisa” which provides information about 140 female artists.

Key words: *tazkira, arifa, poetess, literary process, preface, praise, na't, literary environment, diwan, nazira, zullisonayn.*

¹ Adizova Iqboloy Istamovna – Doctor of philological sciences, professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ataullo98@mail.ru; iqboloya9@gmail.com

ORSID ID: 0000 – 0002 – 3685 9955

For citation: Adizova, I. 2024. “Interpretation of works of poetess in Tazkiras”. *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2 (2): 4-20.

References

- Bobur Zahiriddin Muhammad. 2002. Boburnoma. Toshkent: Fan nashriyoti. 533. Toshkent.
- Navoiy Alisher. 1991. Xamsa. Farhod va Shirin. MAT, 8-tom. Fan nashriyoti. Toshkent.
- Navoiy Alisher. 1997. Majolis un-nafois. MAT. 13-tom. Fan nashriyoti. Toshkent.
- Navoiy Alisher. 2001. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. Fan nashriyoti. Toshkent.
- Faxri Hiraviy. 2014. Javohir ul-ajoyib. "Mumtoz so'z" nashriyoti. Toshkent.
- Alimbekov Adham. 2022. Ey do'st, muhabbatning umri tuzoqdir. Toshkent: Sharq yulduzi. 2/22.
- Gulzoda, S. (2023). BOBUR VA JADIDLAR IJODIDA VATANPARVARLIK G 'OYALARI MUSHTARAKLIGI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
- Хамроева, О. Ж. (2013). ОТРЫВКИ ИЗ» BOBURNOMA» В КОЛЛЕКЦИИ АБДУРАУФ ФИТРАТ. Theoretical & Applied Science, (6), 105-111.
- Jalolovna, K. O. (2019). THE RHYMING STUDY AT "FUNUN UL-BALAGA". Journal of Critical Reviews, 7(3), 2020.
- Нурбой, А. (2005). Маърифат нимадир? Жаҳолат надир?.
- Gulzoda, S. (2023). BOBUR VA JADIDLAR IJODIDA VATANPARVARLIK G 'OYALARI MUSHTARAKLIGI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).